



ORGANIK MAHSULOTLAR ETISHTIRISH DAVR TALABI

Sadikova Gavxaroy Nasrullaxonovna

Andijon Davlat Universiteti

Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8063966>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2023
Accepted: 19th June 2023
Online: 20th June 2023

KEY WORDS

Yashil iqtisodiyot, organik mahsulot, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar, ekologik va ijtimoiy mas'uliyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada organik mahsulotlarni yetishtirish zarurati, shu bilan birga yashil iqtisodiyot va u bilan organik mahsulotlarni bog'liqligi kabi tushunchalar va yurtimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohatlar izohi berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "...qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda mahsulot yetishtirish turlari va eksport hajmlari ortishini ta'minlash ustuvor maqsadlarimiz bo'lib qolaveradi...." deb ta'kidlagan edilar.

Hozirda organik mahsulotlarning oziq-ovqat bozori rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham agrosanoat ishlab chiqarishining istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligi o'z tasdiqini topmoqda.

O'zbekiston agrar oziq-ovqat sohasida yuqori salohiyatga ega. Bu potentsialni organik boshqaruvga osongina qayta ishlatish mumkin, masalan erving katta qismi oz miqdorda noorganik o'g'itlar va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanadi. Agar tegishli siyosat qabul qilinsa va sertifikatlash shartlari bajarilsa, O'zbekiston organik paxta, quritilgan mevalar, yong'oq va yovvoyi yig'ib olingan o'simliklar yetishtirish bo'yicha yetakchiga aylana oladi (JIA, 2017).

Organik mahsulotlar bozorini rivojlantirish nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki uning atrofida yangi tarmoqlarni shakllantirish hamda rivojlantirish, aholining turmush darajasini yanada oshirish bilan birga muqim ish o'rinalarini yaratish, export salmog'ni oshirish orqali valyuta tushumini ko'paytirishni ta'minlaydi. Mamlakatimiz oziq-ovqat bozorida ekologik toza mahsulotlarning kichik ulushi nafaqat ushbu bozorni rivojlantirish uchun yuqori potentsial borligini bildiradi balki bu borada qator amalga oshirishimiz darkor bo'lgan vazifalarni oldimizga qo'yadi.

"Ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari" tushunchasida iqtisodiyot va ekologiya bir biri bilan bog'liq ekanligini o'zida aks ettiradi. Ushbu muammoni hal qilishda eng muhim rol tegishli institutsional va iqtisodiy sharoitlarda organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga qodir bo'lgan organik (ekologik) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi



sub'ektlarga, uchinchi hokimiyat vakillariga, qolaversa shu sohada ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlar zimmasiga yuklanadi.

Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda mineral o'g'itlar, pestitsidlar, neft mahsulotlari intensiv foydalanilib tovar mahsuloti hajmini ko'paytirish, qishloq xo'jaligi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga olib keldi, ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyot va oziq-ovqat xavfsizligi yaxshilandi.

Lekin, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonida atrof-muhitning ifloslanishi, oziq-ovqat sifatining pasayishi va qishloq joylarining barqaror ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq bir qator salbiy muammolarni keltirib chiqardi.

Bunday muammolarga echim topish maqsadida yurtboshimiz tomonidan bir qancha islohatlar olib borilmoqda. Ularga misol qilib 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorini olishimiz mumkin. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy elementlaridan biri organik mahsulotlar yetishtirish va ular bilan aholi dasturxonlarini to'ldirish shu bilan birga jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik talablariga javob beradigan mahsulotlar yetishtirish, xalqaro bozorlardagi o'rnni mustahkamlash uchun organik (ekologik, biologik) qishloq xo'jaligi sohasiga katta e'tibor berilmoqda va bu yo'nalishda turli izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Organik mahsulotlar to'g'risida" qabul qilingan qonunda organik mahsulotlar va u bilan bog'liq tushunchalar, organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qadoqlash, sertifikatlash, sotish tartiblari keltirilgan.

Organik mahsulotlarga alohida ta'rif berilgan bo'lib: organik mahsulotlar — ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, transportda tashish va realizatsiya qilishning barcha bosqichlarida organik mahsulotlar to'g'risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga javob beradigan ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llagan holda olingan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar;¹

Organik mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida asosiy prinsiplar mavjud bo'lib, ular insonlar sog'ligini saqlash, ekologiyaga yomon ta'sir etuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarmaslik, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish, organik mahsulotlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishning doimiyligi va organik mahsulotlar etishtirish va ishlab chiqarish yo'nalishlarini tanlashning ixtiyoriyligi kabi tushunchalar bilan izohlanadi.

Organik qishloq xo'jaligining afzallikkari mavjud bo'lib, ulardan bir nechasi quyida keltirilgan:

1. Fermer, savdogar va qayta ishlovchilar uchun ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirish imkoniyati orqali daromad olish.
2. Talabning yuqoriligi sababli fermer, savdogar va qayta ishlovchilar yuqori narx vositasida sezilarli darajada foyda olish.
3. Ish o'rinalarini ko'payishi natijasida jamiyat uchun iqtisodiy foydaning ortishi.
4. Eksport hajmini oshirish imkoniyatini kengayishi..
5. Tabiiy kapitalni qurishda, xususan, tuproqlarda uzoq muddatli foya.

¹ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI ORGANIK MAHSULOTLAR TO'G'RISIDA



6. Jamiyat uchun xarajatlarning kamayishi, masalan. suvni tozalash va sog'liqni saqlash uchun.

7. Fermerlar o'rtasidagi hamkorlik, qadrlanadigan ishni qilishdan faxrlanish ma'naviy jihatdan yuksalish hissini ortishi va....

Butun dunyoda organik dehqonchilikka alohida e'tibor qaratilib, katta moliyaviy resurslar ajratilmoqda. O'zbekistonda organik dehqonchilikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, faqatgina biz bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olishimiz va xalqimizni turmush darajasini oshirishda rivojlangan mamlakatlar olib borayotgan islohatlarni o'rganib o'zimizga moslagan holda qishloq xo'jaligini sekin, ammo maqsadli ravishda organik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga o'tkazmog'imiz darkor.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida biz quyidagi xulosalarga keldik va bir necha tavsiyalar bermoqchimiz:

- Hozirgi bozor va ishlab chiqarish holatini aniq tashxis qo'yish tizimlarini ishga solish orqali dunyo standartlariga mos mahsulotlar yetishtirish rejalarini tuzish.
- Keng jamoatchilikning organik mahsulotlar to'g'risida ma'lumotlari bo'yicha ularning kompleks, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik savodxonligini oshirish darkor. Buning uchun ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlarda mavzuga oid kontentlar joylash lozim.
- Fermer va dehqonlarning organik mahsulotlarni etishtirish bo'yicha ilmiy salohiyatlarini oshirish va olingan tajribalarini bir birlari bilan almashishlari uchun ilmiy seminarlar, ko'rgazmalar tashkil etish kerak.
- Turli ob'yektlarda ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlar yaratish. Buning uchun organik mahsulotlarni bizni sharoitimizda qanday etishtirish, saqlash, sotishni amalga oshirish uchun ilmiy loyihalar asosida tanlovlар e'lon qilinib, tegishli institutlar tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarur.

Organik mahsulotlar etishtirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ulardan o'z iqlim sharoitimizga moslarini amaliyotga tadbiq etish lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Organik mahsulotlar to'g'risida qonuni
2. [USDA Blog » Organic 101: Allowed and Prohibited Substances](#).
3. [Definition of organic agriculture. ifoam.bio \(IFOAM\)](#).
4. Yakubova Barno Baxtiyorovna. (2023). FORMATION OF INDEPENDENT THINKING AMONG YOUNG PEOPLE – TODAY IS THE MOST RELEVANT DAY IN PEDAGOGY AS A FUNCTION. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(3), 143–148.
5. Yakubova Barno Bakhtiyorovna. (2022). INDEPENDENT WORK OF STUDENTS THROUGH THE INTERNET PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 3, 59–61.
6. Yoqubova, B. B. (2019). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari. *O'zgaruvchan dunyoda psixologiya: muammolar, gipotezalar, tadqiqotlar* (291-295-betlar).
7. Madaminjonovich, K. H. (2023). ECOSYSTEM MANAGEMENT: A HORTICULTURAL APPROACH TO SOIL EROSION PROTECTION. *PEDAGOGS jurnali*, 35(3), 66-70.



8. Qosimjon o'g'li, T. B. (2023). MEHNATNI MUHOFAZA QILISH TAMOYILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 2(2), 42-51.
9. MUHİDDİNÖV, M., & ELTAZAROV, J. ALİ ŞİR NEVÂYİNİN ESERLERİNDÉ KÂMİL İNSAN KAVRAMININ YORUMU VE ONUN ÇAĞDAŞ «İNSANI GELİŞİM» DÜŞÜNCESİYLE FELSEFİ-ESTETİK AÇIDAN BAĞLANTILARI 1. Giriş.
10. Muhiddinov, M. (2015). Komil inson-adabiyot ideali. Toshkent. Ma'naviyat.
11. Мухиддинов, М. (1998). Ўн тўққиз чемпион. Т.: Юлдузча.
12. Мухиддинов, М. (2007). Нурли қалблар гулшани. Т.: Фан.
13. Б МУХИТДИНОВА (2022). МУНОСИБ ТУҲФА. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(3), 167-169.
14. Badia Muhitdinova. A WORTHY GIFT. Alisher Navoi. 2022, vol. 2, issue 3, pp.167- 169.
15. Мухитдина Б.М (2022). ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САИДАХМАДА ВАСЛИ САМАРКАНДИ. КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В СТРАТЕГИИ «ОБЩЕСТВО 5.0» сборник материалов конференции. Том 1. Набережночелнинский институт Казанского Федерального университета. Казань, 158-161.
16. Мухитдина, Б. М. (2021). THE IDEOLOGICAL DIRECTION AND MAIN ARTISTIC IMAGES OF DASTANS "KHUSRAV AND SHIRIN" AND "FARHOD AND SHIRIN". ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(1).
17. Nazmiya, M. (2019). IDEALOGICAL-ARTISTIC CONCERN IN THE CREATION OF KHUSROW DEHLAVI AND ALISHER NAVOI. Глобус, (9 (42)), 43-45.
18. Muhitdinova, N. M. (2021). Interpretation of mystical themes in Mirhasan Sadoi and muhammad ghazi's collection of poems. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 538-548.
19. Muslihiddinovna, M. N., & Fatkhiddinovna, K. S. (2019). The comparative character analysis of farhad and majnun in epic poems by alisher navai. Test Engineering and Management, 81(11-12), 4198-4206.
20. Mukhittdinova, N. M. (2016). TRADITIONS OF BOBORAKHIM MASHRAB IN CREATIVE ACTIVITY OF KHOZHANAZAR KHUVAYDO. Международный научно-исследовательский журнал,(4 (46) Part 4), 61-64.
21. Мухитдина, Н. (2021). SADOIY VA G 'OZIY DEVONLARIDA ALISHER NAVOIY AN'ANALARI (HAMD, NA'T, MUNOJOT VA MANQABAT MAVZULARIDAGI G 'AZALLAR MISOLIDA). ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 1(2).
22. Sh, S. B. (2023). ACTIVITIES OF THE ADVISORY COUNCIL (SUPREME COUNCIL) IN THE KOKAND KHANATE.
23. Шамшиддинов, Б. Ш. Ў. (2022). СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ФАРФОНА ВОДИЙСИГА МАМУРИЙ СОХАДА КИРИТГАН ЯНГИЛИКЛАРИ. Science and innovation, 1, 21-24.
24. Яқубова, Б. Б. (2019). Теоретические основы организации самостоятельной работы студентов. In *Психология в меняющемся мире: проблемы, гипотезы, исследования* (pp. 291-295).
25. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. Journal of new century innovations, 18(5), 109-120.



EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.3 | SJIF = 5.961

www.in-academy.uz

26. Rahimov Rahmatullo Rafuqjon o'g'li. (2022). TIRSAKLI VALLARNI TAMIRLASH ISTIQBOLLARI. *Conference Zone*, 333-342. A Rakhmanov, R Rakhimov, I Nazarov. (2019). URBAN WASTE AS ORGANIC FUEL. Точная наука. УДК: 662.(39),35-37.
27. Rahmatullo Rafuqjon, O. G. Li Rahimov (2022). Avtomobil Transportida Tashuv Ishlarini Amalga Oshirishda Harakat Xavfsizligini Ta'minlash Uslublarini Takomillashtirish Yo'llari. Образование И Наука В Xxi Веке, 750-754..
28. ўғли Раҳимов, Р. Р. (2022). ТАШИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. О'zbekistonda FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 656-663.
29. Raximov, R., G'ulomova, Z., & G'ulomov, I. (2023). SHISHA ISHLAB CHIQARISH VA UNI KLASIFIKATSIYASI. Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi, 1(2), 9-15.
30. Odiljonova, O., Ro'zioxunova, O., & Raximov, R. (2023). POLIMERLARNING ISHLATILISH SOXASI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(3), 24-26.
31. Rakhimov, R., & Saidahmedov , R. (2023). INTELLECTUAL DIAGNOSIS OF THE TECHNICAL STATE OF DIRECTIONAL TAXIS. International Conference On Higher Education Teaching, 1(1), 80-85.